# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
# QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRINING BUYRUG‘I

2024 - yil “ 8 ” iyul 178-son *(Ichb)* **Toshkent viloyati**

**Agrar sohadagi oliy ta’lim muassasalari qoshidagi akademik litseylarning bitiruvchilarini ushbu oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha yakka tartibda suhbat jarayonlarini tashkil etish hamda o‘tkazish to‘g‘risida**

Adliya vazirligi tomonidan 2023-yil 14-noyabrda 3476-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan Qishloq xo‘jaligi vazirining “Agrar sohadagi oliy ta’lim muassasalari qoshidagi akademik litseylarning bitiruvchilarini ushbu oliy ta’lim muassasalariga yakka tartibda suhbat o‘tkazish orqali o‘qishga qabul qilish tartibi” to‘g‘risidagi 2023-yil 19-oktabrdagi 218-sonli buyrug‘i ijrosini ta’minlash maqsadida

**B U Y U R A M A N:**

**1.** Vazir o‘rinbosari A.Shukurov, Ilm-fan, innovatsiyalar va ta’limni rivojlantirish boshqarmasi (Atakulov), Toshkent davlat agrar universiteti (Islamov), Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti (Yunusov), Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti (Sultonov) agrar sohadagi oliy ta’lim muassasalari qoshidagi akademik litseylarning bitiruvchilarini ushbu oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga o‘qishga qabul qilish uchun yakka tartibdagi suhbat o‘tkazish jarayonlarini yuqori saviyada tashkil etishsin.

**2.** Akademik litsey bitiruvchilarini oliy ta’lim muassasalari bakalavriatlariga o‘qishga qabul qilish uchun yakka tartibdagi Suhbat komissiya raislari va a’zolari (keyingi o‘rinlarda - Suhbat komissiya a’zolari) **ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

**3.** Toshkent davlat agrar universiteti (Islamov), Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti (Yunusov), Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti (Sultonov) va qabul komissiyasi a’zolariga:

akademik litseylarning bitiruvchilarini oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga o‘qishga qabul qilish uchun yakka tartibdagi suhbat o‘tkazish grafiklarini **joriy yil 1-10-avgust kunlariga** tasdiqlash va vazirlikka taqdim etish;

yakka tartibdagi Suhbat o‘tkazish muddatlarini, aniq vaqti va joylarini ko‘rsatgan holda oliy ta’lim muassasalari rasmiy sahifalarida e’lon qilish va abituriyentlarga yetkazish;

Akademik litsey bitiruvchilarini o‘qishga qabul qilish bo‘yicha yakka tartibdagi suhbat o‘tkaziladigan auditoriyalarni tashkil etish;

suhbat o‘tkaziladigan auditoriyalarni ichimlik suvi, ruchka va boshqa vositalar bilan ta’minlash;

suhbat o‘tkaziladigan binolarning mo‘tadil haroratini saqlash;

Akademik litsey bitiruvchilariga amaliy yordam ko‘rsatish hamda imtihonlarni o‘tkazish jarayonida tartib-intizomni saqlash bo‘yicha maslahatlar berish;

suhbat jarayonlarini “Agrar sohadagi oliy ta’lim muassasalari qoshidagi akademik litseylarning bitiruvchilarini ushbu oliy ta’lim muassasalariga yakka tartibda suhbat o‘tkazish orqali o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga qat’iy amal qilgan holda o‘tkazish;

suhbat jarayonlarida abituriyentlarni baholashda qonuniylik, adolatlilik, xolislik tamoyillariga qat’iy rioya qilish;

yakka tartibdagi suhbat natijalari suhbat o‘tkazilgan kunning o‘zida abituriyentlarga e’lon qilish;

suhbat natijalariga ko‘ra talabalikka tavsiya etilganlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni vazirlikka suhbat natijalari e’lon qilingan kundan keyin 3 (uch) kun muddatda yetkazish;

xizmat zaruriyati tufayli komissiya ishiga qo‘shimcha mutaxassislarni jalb qilish;

suhbat jarayoni to‘liq videokuzatuv ostida o‘tkazilishini va suhbat jarayonini ota-onalar, kuzatuvchilar uchun ajratilgan alohida kutish joyiga ovozli tarzda onlayn translyatsiya qilishni ta’minlash;

suhbat jarayoni to‘liq va sifatli videokuzatuv ostida o‘tkazilishini va videoyozuvlarning kamida 3 (uch) yil oliy ta’lim muassasasida saqlanishini ta’minlash vazifalari yuklatilsin.

**4.** Akademik litsey bitiruvchilarini o‘qishga qabul qilish bo‘yicha o‘tkazilgan suhbat natijasiga ko‘ra shikoyat arizalarini ko‘rib chiqish uchun Apellyatsiya komissiyasi tarkibini tasdiqlash Oliy ta’lim muassasalari rahbarlari zimmasiga yuklatilsin.

**5.** Shikoyat arizalarini ko‘rib chiqish Qishloq xo‘jaligi vazirining “Agrar sohadagi oliy ta’lim muassasalari qoshidagi akademik litseylarning bitiruvchilarini ushbu oliy ta’lim muassasalariga yakka tartibda suhbat o‘tkazish orqali o‘qishga qabul qilish tartibi” to‘g‘risidagi 2023-yil 19-oktabrdagi 218-sonli buyrug‘i Nizomida belgilangan tartib bo‘yicha amalga oshirilsin.

**6.** Mazkur buyruq ijrosining nazorati vazir o‘rinbosari A.Shukurov zimmasiga yuklatilsin.

**Vazir** O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRLIGI ASLIGA TO‘G‘RI DEVONXONA **I.Abduraxmonov**

O'zbekiston Respublikasi
Qishloq xo'jaligi vazirining
"8" 07 2024-yildagi
178 -sonli buyrug'iga
ilova

**Agrar sohadagi oliy ta'lim muassasalari qoshidagi akademik litseylarning bitiruvchilarini ushbu oliy ta'lim muassasalariga yakka tartibda suhbat o'tkazish orqali o'qishga qabul qilish uchun yakka tartibdagi suhbat komissiya raislari va a'zolari**
**RO'YXATI**

| T/r | F.I.O | Lavozimi |
|---|---|---|
| **Toshkent davlat agrar universiteti** | | |
| 1. | Islamov Soxib Yaxshibekovich | Toshkent davlat agrar universiteti birinchi prorektori, *suhbat komissiya raisi* |
| 2. | Atakulov Tuxtamurod Umarovich | O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi Ilm-fan, innovatsiyalar va ta'limni rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i |
| 3. | Nematov Nurillo Abduraxim o'g'li | ToshDAU Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash kafedrasi dotsenti, *suhbat komissiya kotibi* |
| 4. | Buxorov Komil Xushvaqtovich | ToshDAU Ekologiya va botanika kafedrasi mudiri, Biologiya fanlari nomzodi, dotsent |
| 5. | Abdullayeva Ulfat Turaxonovna | ToshDAU Tillar kafedrasi mudiri, dotsent |
| 6. | Xalmirzayeva Sayyora Shukurovna | ToshDAU O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi mudiri, Filologiya fanlari nomzodi, dotsent |
| 7. | Ostonov Oybek Aliqulovich | ToshDAU Gumanitar fanlar va huquq kafedrasi mudiri, Tarix fanlari doktori, dotsent |
| 8. | Noraliyev Nurulla Xaydaraliyevich | ToshDAU Axborot tizimlari va texnologiyalari kafedrasi mudiri, Fizika-matematika fanlari nomzodi, professor |
| 9. | Mirvadiyev Zoid Zoxidovich | ToshDAU Biokimyo va fiziologiya kafedrasi mudiri, Texnika fanlari doktori, dotsent |
| **Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti** | | |
| 1. | Sultanov Tohirjon Zokirovich | Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti rektori, *suhbat komissiya raisi* |
| 2. | Tog'aymurodov Elbek Boysoatovich | O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi Ilm-fan, innovatsiyalar va ta'limni rivojlantirish boshqarmasi bosh mutaxassisi |

| | | |
|---|---|---|
| 3. | Samatov Nematjon Axmatovich | AQXAI Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i, texnika fanlari nomzodi, professor, *suhbat komissiya kotibi* |
| 4. | Atajanov Murodjon Maxamadjanovich | AQXAI O'quv ishlari bo'yicha prorektor, qishloq xo'jaligi fanlari falsafa doktori, dotsent |
| 5. | Valixonova Gulnaroxon Komiljonovna | AQXAI Gumanitar fanlar kafedrasi mudiri, tarix fanlari falsafa doktori, dotsent |
| 6. | Toshpo'latov Dilshodbek Shermuxammedovich | AQXAI Axborot texnologiyalari va matematika kafedrasi mudiri, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent |
| 7. | Abdullaeva Nargiza Sobirjonovna | AQXAI Xorijiy tillar kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari falsafa doktori |
| 8. | Muzaffarov Adiljon Axmadbekovich | AQXAI Fizika va kimyo kafedrasi mudiri, kimyo fanlari nomzodi, dotsent |
| 9. | Raximov Azizbek Dilmuratovich | AQXAI Qishloq xo'jaligi ekinlari seleksiyasi, urug'chiligi va dorivor o'simliklar yetishtirish kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari doktori |
| **Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti** | | |
| 1. | Yunusov Xudoynazar Beknazarovich | Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti rektori, *suhbat komissiya raisi* |
| 2. | Suvanqulov Shohhusan Muxammad o'g'li | O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi Ilm-fan, innovatsiyalar va ta'limni rivojlantirish boshqarmasi bosh mutaxassisi |
| 3. | Boymurodov Xusniddin Toshboltayevich | SamDVMCHBU Biologiya, ekologiya va dorivor o'simliklari kafedrasi professori, *suhbat komissiya kotibi* |
| 4. | Davronova Fotima Pirnazarovna | SamDVMCHBU Xorijiy tillar kafedrasi f.f.f.d. falsafa fanlari doktori, dotsent |
| 5. | Sayitqulov Shuxrat Murodovich | SamDVMCHBU Axborot texnologiyalari va tabiiy fanlari kafedrasi dotsenti |
| 6. | Eshmuradov Ulug'bek Tashmuratovich | SamDVMCHBU Iqtisodiyot va bugalteriya hisobi kafedrasi mudiri, katta o'qituvchisi |
| 7. | Mavlaynov Majid Tuychiyevich | SamDVMCHBU Axborot texnologiyalari va tabiiy fanlari kafedrasi katta o'qituvchisi |
| 8. | Xasilbekov Aqnazar Yadgirovich | SamDVMCHBU Agrotexnologiyalar, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirishva avtomatlashtirish kafedrasi mudiri, q.f.f.d., dotsent |
| 9. | Ostonov Jamol Elmuradovich | SamDVMCHBU Ijtimoiy-gumanitar fanlar, jismoniy madaniyat va sport kafedrasi o'qituvchisi |